

QISHLOQ XO‘JALIGIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH

Guliston davlat universiteti

Katta o‘qituvchi Umaraliyev O.R.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jalik kooperatsiyasining qishloq hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri keng ko‘lamda tahlil etiladi. Avvalo, kooperatsiya tushunchasi, uning tamoyillari va turlari, kooperativni tashkil etish tartibi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi kooperativi, kooperativ a‘zosi, kooperativ ustavi, to‘lanadigan pay.

DEVELOPMENT OF COOPERATIVE RELATIONS IN AGRICULTURE

Gulistan State University

Senior teacher Umaraliyev O.R.

Annotation. This article extensively analyzes the impact of agricultural cooperation on socio-economic development in rural areas. First of all, the concept of cooperation, its principles and types, the procedure for organizing a cooperative are studied.

Keywords: agricultural cooperative, cooperative member, cooperative charter, payable share.

Kirish. Qishloq xo‘jaligining asosiy masalasi bu – qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta‘minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qishloq xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan kooperativlarning o‘rni beqiyosdir.

Global miqyosda kechayotgan iqlim o'zgarishlari, suv resurslarining tanqisligi va yer maydonlarining unumdorligi pasayib borayotgan bir davrda, agrar sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi"da ham sohani modernizatsiya qilish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini tubdan oshirish hamda innovatsion, resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Kooperativ asosida faoliyat yurituvchi qishloq xo'jaligi subyektlari alohida ishlab chiqaruvchilarga nisbatan barqaror iqtisodiy natijalarga erishmoqda. Kooperatsiya resurslardan unumli foydalanish, xarajatlarni kamaytirish, bozor infratuzilmasiga kirishni yengillashtirish, savdo-sotiqdagi vositachilardan xalos bo'lish imkonini beradi. Kooperatsiyalar aholining bandligini oshirib, ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Kooperativlar o'z mablag'lari evaziga yo'l, sug'orish tizimi, saqlash omborlari kabi infratuzilmalarni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Bu esa qishloq joylardagi umumiy yashash sifatini yaxshilagan.

Natija va xulosalar:

Qishloq xo'jalik kooperatsiyasi qishloq rivojida strategik vosita hisoblanadi. Agar bu tizim to'g'ri yo'lga qo'yilsa, u nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni ham ta'minlashi mumkin.

Qishloq xo'jalik kooperatsiyasi – bu fermerlar, dehqonlar, chorvadorlar va boshqa ishlab chiqaruvchilarning o'zaro manfaatdorlik asosida tuzgan birlashmalaridir. Ular ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilishda kooperativ asosida faoliyat yuritib, iqtisodiy samaradorlikka erishadilar.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish kooperatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayni paytda, raqamli texnologiyalardan foydalanish (masalan, onlayn savdo platformalari, agro-illovalar) kooperativ

a'zolariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Qishloq xo'jalik kooperatsiyasi qishloqlarning kompleks rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U orqali iqtisodiy mustaqillik, ijtimoiy barqarorlik va infratuzilma taraqqiyoti ta'minlanadi.

Kooperatsiyaning muvaffaqiyatli faoliyati uchun esa quyidagilar muhim hisoblanadi: qishloq aholisi o'rtasida kooperatsiya madaniyatini shakllantirish; davlat tomonidan huquqiy, moliyaviy va texnik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish; kooperativ boshqaruvini ochiq va shaffof tizimga o'tkazish; raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali bozor integratsiyasini kuchaytirish; xalqaro tajribalarni o'rganish va moslashtirish.

Ushbu yo'nalishdagi tizimli ishlar O'zbekistonning qishloq joylarida yashovchi aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi hamda qishloq xo'jaligining barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda aholi o'sish sur'atlarining yuqoriligini inobatga olgan holda yangi ish o'rinlarini yaratish zarurati kooperatsiya faoliyatini rivojlantirishni hamda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligida kooperatsiya faoliyatining asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. kooperativ a'zoriga kirish va undan chiqishning ixtiyoriyligi;
2. kooperativ faoliyatidagi o'zini o'zi boshqarish va mustaqillik;
3. kooperativ ustavida nazarda tutilgan tartibda uning ishi ustidan kooperativ a'zolarining nazorat qilishi;
4. uning faoliyatida kooperativ a'zolarining iqtisodiy jihatdan ishtirok etishi;
5. kooperativ a'zolari o'rtasida daromadni (foydani) ularning paylariga muvofiq mutanosib ravishda taqsimlash;
6. kooperativlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, kooperativni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish.

Qishloq xo'jaligi kooperativni tashkil etish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi. Kooperativ huquqiy shaxs sifatida tashkil etiladi. Buning uchun davlat xizmatlari markaziga qonunda belgilangan tartibda ariza bilan muroajat qilinadi.

Mazkur arizaga kooperativning tasdiqlangan ustavi, kooperativ boshqaruvini, kooperativ boshqaruvi raisini va kooperativning kuzatuv kengashini saylash to'g'risidagi hujjatlar, shuningdek kooperativ muassislari ta'sis yig'ilishining bayonnomasi ilova qilinadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi kamida etti nafar jismoniy shaxsdan iborat bo'lganda tashkil etilishi mumkin. Shu jumladan huquqiy shaxslardan tashkil topishi ham mumkin. Qo'shma kooperativ tashkil etilganda kamida uchta kooperativdan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Kooperativ tashkil etish istagini bildirgan jismoniy va yuridik shaxslar ta'sis qo'mitasini tuzadi.

Ta'sis qo'mitasining vazifalari jumlasiga quyidagilar kiradi: kooperativ ustavining loyihasini tayyorlash; tashkil etiladigan kooperativ muassislarining ta'sis yig'ilishini tayyorlash va o'tkazish.

Kooperativ muassislarining ta'sis yig'ilishi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kooperativni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- kooperativ ustavini tasdiqlaydi;
- kooperativ ustavi tasdiqlangan hujjatga o'z ismi, familiyasi va manzillarini ko'rsatgan holda, yuridik shaxslarga nisbatan esa o'z vakillarining vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatni ko'rsatgan holda imzo qo'ygan ta'sis yig'ilishi ishtirokchilarini kooperativ a'ziligiga qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- kooperativning boshqaruv organlarini, shu jumladan kooperativ boshqaruvini, kooperativ boshqaruvi raisini va kooperativning kuzatuv kengashi a'zolarini saylaydi.

Ustav-kooperativning ta'sis hujjati hisoblanadi. O'zbekiston respublikasining "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risidagi qonunnig 9 moddasida hujjatda bo'lishi kerak bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan:

- Tashkilot nomi.
- Faoliyatning predmeti, muddatlari va maqsadlari.
- Ulushli badallar miqdori.
- Bo'linmas badallarni shakllantirish shartlari.

- Subsidiar javobgarlik shartlari.
- Boshqaruv organining tarkibi.
- Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari.
- Tugatish shartlari. Ustavga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Biroq, bu umumiy yig'ilishning tegishli qarorini talab qiladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlarning bozor iqtisodiyotidagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- sa'y-harakatlarni birlashtirish, ulardan oqilona foydalanish uchun mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni jamlash imkoniyati;
- bozorga yaxshiroq moslashish va o'zgaruvchan talabga moslashuvchan javob berishga imkon beradi;
- xaridorga mahsulotning kafolatlangan hajmlarini taqdim etish orqali maksimal narxni olish;
- hamkorlik sizga daromad va aniq amalga oshirish muddatlarini rejalashtirish imkonini beradi;
- bu qishloq mehnatkashlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlardir. Tadbirkorlikning kooperativ shakllari ko'plab mamlakatlarda keng qo'llanila boshlandi va ko'p yillik hamkorlik natijasida o'zining samaradorligini isbotladi

Qishloq xo'jaligi kooperativlarning faoliyat turlari quyidagicha shakllanadi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash;
- ishtirokchilar nafaqat tovarlarni sotishda, balki qadoqlash va saqlashda ham ishtirok etadilar;
- ishtirokchilar har qanday xizmatlarni taqdim etadilar: qayta ishlash, ta'mirlash ishlari, yuridik maslahat;
- kooperativlar xarid qilish maqsadida tuziladi; ozuqa va o'g'itlarni birgalikda sotib olish pulni tejashga yordam beradi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi kooperativi - xodimlarning turmush darajasini oshirishni ta'minlaydi, ijtimoiy muammolarni hal etishga hissa qo'shadi, ishtirokchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi, qo'shilgan

qiymat zanjirini yaratishga xizmat qiladi, qishloq joylarda eng muhim vazifalardan biri bo'lgan bandlikni ta'minlaydi. Uning sanoat bilan integratsiyasi mamlakat eksport salohiyatini oshiradi, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ichki va tashqi ehtiyojlar bozorini qoplashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston respublikasining qonuni "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida" Toshkent sh., 2024-yil 8-noyabr, o'rq-995-son
2. Mirzayev M. U., Ziyadullayev I. N. Qishloq xo'jaligida kooperativlarni rivojlantirish imkoniyatlari. Jurnal. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2025-yil, dekabr. № 12-son. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
3. Mahmudov M. A. Qishloq xo'jalik kooperatsiyasining qishloqlar rivojida ro'li. International journal of scientific researchers. Volume 11, issue 2, May 2025. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR>.
4. Boymatov X.Q "Agrar munosabatlarni rivojlantirishda kooperatsiyaning o'rni." Org/index.php/konferences/ article/view/141125 sentabr 2022 yil
5. Балалова Е. И., Рудакова Т.В., Жуков А.С. Предпринимательство потребительских кооперативов в инфраструктуре региональной экономики // Фундаментальные и прикладные исследования кооперативного сектора экономики. 2020. № 3. С. 35-44.